
SAVOL BERING, JAVOB BERAMIZ



Savol bering, javob beramiz

Savol: Referendum o'tkazuvchi komissiyalarni to'zish to'g'risida ma'lumot bersangiz

Javob: O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Referendumi to'g'risida"gi Qonunining 21-moddasi talablariga asosan Referendum o'tkazuvchi uchastka komissiyasi referendum tayinlash to'g'risidagi qaror e'lon qilinganidan keyin okrug komissiyasi tomonidan yigirma besh kundan kechikmay besh — o'n to'qqiz nafar a'zodan, shu jumladan komissiya raisi, rais o'rinbosari va kotibidan iborat tarkibda tuziladi.

Referendum o'tkazuvchi uchastka komissiyasi tarkibining soni zarur bo'lgan hollarda ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida referendum o'tkazuvchi uchastka komissiyasi raisining vazifalarini ularning rahbari amalga oshiradi.

Referendum o'tkazuvchi uchastka komissiyasi a'ziligiga nomzodlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan taklif etilib, bu nomzodlar xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlarining majlislarida muhokama qilinadi hamda tegishli referendum o'tkazuvchi okrug komissiyasiga tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

A.Toshpulatov - So'x tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-04-05 17:23:28